

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISMADIYOROV AKMALJON USMANOVICH

**TURLI KONLAR BENTONITLARINING STRUKTURAVIY
XUSUSIYATLARI VA ULARNING ADSORBSION XUSUSIYATLARIGA
MODIFIKATSIYALASHNING TA'SIRI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Ismadiyurov Akmaljon Usmanovich

Turli konlar bentonitlarining strukturaviy xususiyatlari va ularning adsorbtsion xususiyatlariga modifikatsiyalashning ta’siri 3

Исмадиёров Акмалжон Усманович

Структурные особенности бентонитов различных месторождений и влияние модифицирования на их адсорбционные свойства..... 21

Ismadiyurov Akmaljon

Structural features of bentonites from various deposits and the effect of modification on their adsorption properties..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISMADIYOROV AKMALJON USMANOVICH

**TURLI KONLAR BENTONITLARINING STRUKTURAVIY
XUSUSIYATLARI VA ULARNING ADSORBSION XUSUSIYATLARIGA
MODIFIKATSIYALASHNING TA'SIRI**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.2.PhD/K1008 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Arislanov Akmaljon Sayibbayevich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmanov Eldor Baratovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Seytnazarova Oksana Muratbayevna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot

Farg‘ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «8» noyabr soat «10⁰⁰» dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85; faks: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz), Namangan davlat texnika universiteti, 6-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (73-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7. Tel.:(69) 234-14-85).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «24» oktyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «24» oktyabrdagi № 14 - raqamli reestr bayonnomasi).

Ergashev O.K.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

Mallabayev O.T.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, k.f.f.d., dotsent

Sherqo‘ziyev D.Sh.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda tabiiy va oqava suvlarni qiyin oksidlanadigan organik moddalar, og‘ir metall ionlari va neft mahsulotlari bilan ifloslanishi inson salomatligi va ekologiyaga jiddiy tahdid solayotgan asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Samarali adsorbentlar ishlab chiqishning dolzarbligi ifloslantiruvchi qo‘shimchalarni minimal energiya sarfi bilan tez va to‘liq yo‘qotish zarurati, hamda adsorbentlarni mavjud tozalash texnologiyalariga osonlik bilan joriy etish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tuzilishi boshqarilgan g‘ovaklikka ega bo‘lgan, yuqori sorbsiya qobiliyatiga ega boyitilgan va Fe-modifikatsiyalangan bentonit gillari keng turdagi ifloslantiruvchilarni zararsizlantirishda istiqbolli yechimlardan biri hisoblanadi.

Jahonda mikrog‘ovak tuzilmaga va selektiv adsorbsion xossalarga ega yangi adsorbsion materiallar yaratish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada tabiiy va mahalliy xomashyo, shu jumladan, mineral resurslar asosida yangi adsorbentlar olish va ularni tadqiq etish, suv, gaz va boshqa muhitlarni tozalash jarayonlaridagi samaradorligini aniqlash, sintez jarayonlarini ishlab chiqish, tuzilmasini, adsorbsion va sirt xossalarini o‘rganish, ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va tajriba asosida sinovdan o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilari asosida yangi bentonitli va boshqa adsorbentlar olish bo‘yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan strategiyasining uchinchi yo‘nalishida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish...”¹ kabi vazifalar belgilangan. Bu borada, yuqori samarali selektiv mikrog‘ovak materiallar yaratish va ularning tuzilmasi bilan funksional xossalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3264-sonli “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uni investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-sonli “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublikada ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi - VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida adsorbentlar va boshqa mikroq'ovak materiallarni yaratish sohasida maqsadli tadqiqotlar turli ilmiy maktablar olimlari tomonidan faol olib borilmoqda: F. Bergaya, R. J. Schoonheydt, G. Lagaly, T. J. Pinnavaia, J. J. Madejová, A. Leroux, J. P. Aimé, A. Gil, M. A. Auerbach, J. L. Cortina, Klooprogge J.T., Ramirez J.H., Carriazo J., Tomul F., Zhou J., Chen Q. Ushbu va boshqa olimlar gil asosidagi adsorbtsion va mikroq'ovak materiallarni yaratish muammosini o'rganishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekistonda K.S.Ahmedov rahbarligida adsorbentlarni o'rganish va yaratishga yo'naltirilgan ilmiy maktab shakllangan bo'lib, uning vakillari: E.A. Aripov, S.S.Hamraev, S.N.Aminov, A.A.Agzamxo'jayev, G.U.Rahmatkariev, U.K.Ahmedov, B.N.Hamidov, S.Z.Muminov, S.A.Abdurahimov, O.K.Ergashev, I.D.Eshmetov, A.B.Abdikamalova va boshqalar uning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar.

Bentonitli adsorbentlarni ishlab chiqishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lishiga qaramay, ularning mikrotuzilmasini boshqarish orqali kation almashinuv sig'imi va selektivligini oshirish masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Asosiy muammolardan biri yuqori sirt yuzasiga va optimal mikro- va mezog'ovaklik nisbatiga ega bentonitlarni olish uchun iqtisodiy jihatdan maqbul, texnologik jihatdan oddiy boyitish va kimyoviy modifikatsiya sxemalarini ishlab chiqishdir. Xususan, ishqoriy faollashtirish rejimi va Fe-gidroksokomplekslarini kiritishning g'ovaklar o'lchamlari bo'yicha taqsimotiga va yangi adsorbtsiya markazlari shakllanishi mexanizmlariga ta'siri yetarlicha o'rganilmagan. Aynan shu holat mazkur dissertatsion ishning ilmiy vazifasini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya olib borilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining tadqiqot rejalari bilan aloqasi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot rejalari muvofiq "Neft, neft-gaz qazib chiqarish sanoati chiqindi suvlarini tozalash uchun adsorbentlar va reagentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, shuningdek, ko'chma tuproq-qumli dispersiyalarda mustahkam struktura hosil qiluvchi reagentlar tarkibini yaratish" mavzusidagi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli konlar bentonitlarining strukturaviy xususiyatlari va ularning adsorbtsion xususiyatlariga modifikatsiyalashning ta'siri

Tadqiqotning vazifalari:

Log'on (LBG), Kattaqo'rg'on (KBG) va Beshtyube (BBG) konlariga mansub bentonit gillarning dastlabki namunalari bo'yicha kompleks fizik-kimyoviy tahlillarni o'tkazish (XRF-tahlil, TGA/DSK, SEM-mikroskopiya);

bentonitlarning fraksion boyitish laboratoriya uslubini suv sarfini minimallashtirgan holda optimallashtirish, montmorillonit ulushini $\geq 90\%$ gacha oshirishni ta'minlash;

boyitilgan namunalarni Na_2CO_3 yordamida ishqoriy va FeSO_4 yordamida temir modifikatsiyasidan o'tkazish, stexiometrik reagent sarfini hisoblash va $\text{Na}^+/\text{K}^+/\text{Ca}^{2+}/\text{Mg}^{2+}$ almashinuv kationlarini Na^+ va Fe^{3+} ga o'zgartirish darajasini aniqlash;

boyitish, Na- va Fe-modifikatsiyaning bentonitlarning mikroq'ovak tuzilmasi va kation almashinuv sig'imiga ta'sirini o'rganish;

tabiiy, boyitilgan va Fe-modifikatsiyalangan bentonitlarning Cu^{2+} ionlari, metilen ko'ki (MK) va metilen zarg'aldog'i (MZ) bo'yicha adsorbtsion xossalarni solishtirish, Lengmyur va Dubinin-Radushkevich izotermalari va kinetikasini aniqlash;

neftni qayta ishlash zavodi oqava suvlari tarkibidagi neft, moylar, fenollar, BKT/KKT va boshqa organik ifloslantiruvchilarni adsorbsion tozalashni o'rganish, Fe-modifikatsiyalangan sorbentlar uchun optimal sharoitlar(sorbent sarfi va vaqti)ni aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Lo'g'on, Kattaqo'rg'on va Beshtyube konlarining bentonit gillari, shuningdek, fraksion boyitilgan, Na_2CO_3 bilan ishqoriy va FeSO_4 bilan temir modifikatsiyalangan sorbentlar olingan.

Tadqiqotning predmetini bentonitlarni boyitish jarayonlari, ularning kimyoviy-mineralogik tarkibi, kation almashinuv sig'imi va mikrog'ovak tuzilmasining Na- va Fe-modifikatsiya bosqichlaridagi o'zgarishlari, shuningdek, Cu^{2+} ionlari, kation va anion bo'yoqlar hamda neft sanoati oqava suvlari komponentlarining sintez qilingan sorbentlarga adsorbsiyasi mexanizmlari va xossalari tasgkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida dispers tizimlarning fizik-kimyoviy (rentgen, mikroskopik, termik) hamda kolloid-kimyoviy (adsorbsion, kalorimetrik, konduktometrik) xossalarini aniqlash uchun zamonaviy va an'anaviy usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kvars-dala shpati qo'shimchalarini selektiv yo'qotish va yuqori aktiv montmorillonit fazasi konsentratsiyasini oshirish bilan bentonitlarni fraksion boyitish kation almashinuv sig'imini KBG 68,7 dan 75,1 mg-ekv/100g gacha, LBG da 74,5 dan 79,9 mg-ekv/100g gacha, BBG da esa 51,8 dan 57,6 mg-ekv/100g gacha orttirishi aniqlangan;

KBG ni boyitilishi nisbiy yuzani 28,53 dan 46,54 m^2/g gacha, mikrog'ovaklar hajmini 0,0063 dan 0,0104 sm^3/g gacha, mezog'ovaklar hajmini esa 0,0921 dan 0,1507 sm^3/g gacha oshirgan bo'lsa, Fe-modifikatsiyalash esa temir gidroksopolikationlari kiritilishi, yangi tor yoriqsimon kanallar shakllanishi hisobiga nisbiy yuzani 68,59 m^2/g ga, mikro va mezog'ovaklar hajmini mos ravishda 0,0153 va 0,2223 sm^3/g gacha oshirishi aniqlangan;

LBGning boyitilishi nisbiy yuzani 34,32 dan 52,33 m^2/g gacha, mikrog'ovaklar hajmini 0,0076 dan 0,0117 sm^3/g gacha, mezog'ovaklar hajmini esa 0,1111 dan 0,1697 sm^3/g gacha oshirib, g'ovaklarning o'rtacha o'lchamini 44,8 dan 43,47 Å ga kamaytirgan bo'lsa, Fe-modifikatsiyalash Fe-OH gidroksokomplekslari kiritilishi hisobiga qatlamlarni maksimal ochilishi, qo'shimcha g'ovaklar hosil bo'lishi sababli yuqoridagi ko'rsatkichlarni, ya'ni nisbiy yuzani 99,52 m^2/g gacha, mikro va mezog'ovaklar hajmini 0,0223 va 0,3228 sm^3/g ga oshirishi va g'ovaklar o'rtacha o'lchamini 42,4 Å ga kamaytirishi isbotlangan;

metilen ko'ki (MK) ning bentonitlarga adsorbsiyalanishi faqatgina ion almashinuvi mexanizmi orqali amalga oshadi (masalan, LBGda 20 daqiqada C_1 9,6 mg/l gacha tushadi va 300 daqiqada taxminan 8,2 mg/l gacha, temir (Fe) bilan modifikatsiya qilish esa Fe-OH guruhlari orqali donor-akseptor komplekslari hosil bo'lishiga yordam beradi, Fe^{3+} ionlarining bentonit tuzilmasiga samarali tarzda kiritilganligi C_1 ni 40 daqiqada 7,8 mg/l gacha va 300 daqiqada 5,4 mg/l gacha tushishiga olib kelishi isbotlangan;

bentonitlarning tabiiy va boyitilgan shakllarida to'yinish 10–15 mg/l dan yuqori konsentratsiyalarda kuzatildi. Temir bilan modifikatsiyalangan LBG (Fe-LBG) namunalarida Fe-OH markazlarining hosil bo'lishi ion almashinuvi bilan sinergik (kuchaytiruvchi) tarzda, S-shaklidagi adsorbsion izotermalar chapga siljishi va to'yinish darajasi ortishi hisobiga maksimal adsorbsiyaga $\text{C}_1 < 10$ mg/l da erishilishi aniqlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar:

bentonitlarning KAS (kation almashinuv sig'imi)ga bog'liq ravishda boyitish va Na-modifikatsiyasi bo'yicha metodik asoslar ishlab chiqilgan;

bentonitlarni Fe-tarkibli eritmalar bilan kimyoviy modifikatsiya qilish usullari ishlab chiqilgan hamda adsorbsiyaning faol markazlarini maqsadli kiritish darajasi aniqlangan;

turli ifloslanish darajasiga ega oqava suvlarni tozalashda Fe-bentonitlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqotlar zamonaviy fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy metodlar asosida amalga oshirildi, tajriba sinovlari laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida olib borildi va "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJning sinov dalolatnomalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bentonit gillarning boyitilishi, Na va Fe-modifikatsiyasi bo'yicha metodologik asoslarning ishlab chiqilishi, ularning tarkibi, tuzilmasi va funksional xossalari o'rtasidagi bog'liqliklarning aniqlanishi bilan asoslanadi. Bu esa suv va gaz muhitlarini tozalashda modifikatsiya sharoitlariga bog'liq ravishda selektiv adsorbentlar olish jarayonini maqsadli boshqarish bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, u mineral xomashyo resurslari asosida adsorbentlar texnologiyasini ishlab chiqishga xizmat qiladi, xususan, bentonit, kaolin va boshqalar — yuqori darajada rivojlangan mikrog'ovak tuzilma va adsorbsion xossalarga ega selektiv adsorbentlar sifatida turli muhitlarni tozalashda, shuningdek, kimyo, kimyoviy va neft texnologiyasi yo'nalishlari bo'yicha magistr va bakalavrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonida qo'llanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bentonitlar asosida adsorbentlar olish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

oqava suvlarni neft, moylar va umumiy organik ugleroddan samarali tozalash uchun Fe-modifikatsiyalangan bentonitlar olish usuli "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJning "2026–2027 yillarda amaliyotga joriy etish uchun istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" ning 2025-yil 20-iyundagi № 15/78-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Fe-LBG sarfi 3 g/l bo'lgan sharoitda 1-sonli oqava suv namunasida neft va moylar kontsentratsiyasi 870 mg/l dan 56 mg/l gacha (>93%), 2-sonli namunada 217 mg/l dan 1,8 mg/l gacha (>99%), 3-sonli namunada 147,5 mg/l dan 0,7 mg/l gacha (>99%), umumiy organik uglerodni 3,2 mg/l dan 1,5 mg/l gacha kamaytirish imkonini beradi;

boyitilgan va Na-modifikatsiyalangan bentonitlar asosida og'ir metallarni oqava suvlardan tozalash usuli "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJning "2026–2027 yillarda amaliyotga joriy etish uchun istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" ning 2025-yil 20-iyundagi № 15/78-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Na-LBG yordamida oqava suvga bir martalik ishlov berishda Cd va Cr ionlarining kontsentratsiyasi aniqlash chegarasidan past darajagacha (<0,005 mg/l), Mn, Fe, Zn, Cu va Ni ionlarini esa mos ravishda 0,01; 0,1; 0,12; 0,01 va 0,06 mg/l gacha kamayib, ifloslantiruvchilarni 98–99% gacha tozalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi va materiallari asosida jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 6 tasi ilmiy maqola bo’lib, 4 tasi respublika, 2 tasi esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to’rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Umumiy hajmi 141 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va olib borilgan tadqiqotning zarurligi asoslanadi, maqsad va vazifalar tavsiflangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilganligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tajriba-sanoat sinovlari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi yoritilgan.

“Bentonitlarning tuzilishini o‘rganish, ularni modifikatsiya qilish va suv muhitlarini tozalashda qo‘llashga oid mavjud yondashuvlarni tahlil qilish” deb nomlangan birinchi bobda gil materiallarining tarkibi va struktura xususiyatlari, ularni qayta ishlash, boyitish va modifikatsiya qilish usullari, Fe-bentonitlarni olish texnologiyasi, shuningdek, oqava suvlarni turli pollyutantlardan tozalashda boyitilgan va modifikatsiyalangan bentonitlarni qo‘llashga oid masalalar tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlil samarali adsorbentlar yaratish bo‘yicha yondashuvni tanlash va ishning maqsadi hamda vazifalarini shakllantirish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy, boyitilgan va Na-modifikatsiyalangan gillarning tarkibi va tuzilmasini tadqiq qilish”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang‘ich gil namunalarining tarkibi va tuzilmasini o‘rganish natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti uchun Log‘on (LBG), Kattaqo‘rg‘on (KBG) va Beshtyube (BBG) konlariga mansub bentonit gillari tanlab olingan. <2 mkm fraksiyasining kimyoviy tarkibi GOST 21216–2014 bo‘yicha aniqlangan. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

$\text{SiO}_2 + \text{Al}_2\text{O}_3$ umumiy miqdori barcha uchta namunada 76–82 % ni tashkil etadi, bu esa montmorillonitning ustunligini va kvars-dala shpati aralashmalarining minimal miqdorini ko‘rsatadi. Eng yuqori SiO_2 (63,45 %) va Al_2O_3 (18,75 %) BBGda, eng past SiO_2 (59,12 %) esa LBGda aniqlangan. Shu bois, $\text{SiO}_2/\text{Al}_2\text{O}_3$ koeffitsienti 3,39 (BBG) dan 3,69 (KBG) gacha o‘zgaradi va nazariy qiymatga yaqinlashadi.




Ishqoriy va ishqoriy-yer metallar oksidlari yig‘indisi eng yuqori LBGda (8,88 %) bo‘lib, bunda $\text{Na}_2\text{O} + \text{K}_2\text{O} > 65$ % ni tashkil qiladi va $\text{Na}_2\text{O}/\text{CaO} \approx 3,2$ bo‘lib, bu yuqori bo‘kish darajasiga ega natriyli turga va yuqori KAS(kation almashinuv sig‘imi)ga mos keladi. KBG esa muvozanatli $\text{Na}_2\text{O}/\text{CaO} \approx 0,74$ va yuqori $\text{Fe}_2\text{O}_3 + \text{FeO}$ (6,12 %) bilan ajralib turadi. BBG esa kalsiyli tur ($\text{Na}_2\text{O}/\text{CaO} \approx 0,48$) bo‘lib, unda eng yuqori CaO (3,45 %) va eng past tabiiy bo‘kish darajasi mavjud.

MgO miqdori BBG va LBGda 1,18 % dan 2,12 % gacha o‘zgaradi, bu esa oktagonal qatlamdagi almashinish darajasini aks ettiradi. KBGda temir oksidlarining yuqori miqdori kislotali dissotsiatsiyani kuchaytiradi, BBGda esa temir oksidlarining past miqdori (2,92 %) ion almashuvchi sorbentlar uchun qulay hisoblanadi. Qizdirishda massaning yo‘qotilishi eng yuqori LBGda (8,3 %), eng past esa KBG va BBGda (6,0–6,3 %) qayd etilgan. Bu LBGdagi bog‘langan suv va organik moddalarning ko‘pligi, hamda uning yuqori adsorbsion faolligi bilan bog‘liq.

Namunalarning kimyoviy tarkibi

Oksidlar	Namunalar		
	LBG	KBG	BBG
SiO ₂	59,12	62,25	63,45
Al ₂ O ₃	17,12	16,85	18,75
Fe ₂ O ₃ + FeO	5,61	6,12	2,92
CaO	1,08	2,12	3,45
MgO	2,12	1,85	1,18
Na ₂ O	3,42	1,56	1,65
K ₂ O	2,26	1,73	0,75
P ₂ O ₅	0,28	0,45	0,21
SO ₃	0,36	0,56	0,56
CO ₂	0,33	0,48	0,74
Qizdirish jarayonidagi massa kamayishi	8,3	6,03	6,34

KBGda birinchi endotermik pik ≈ 135 °C da ($\Delta m \approx 5,8$ %) bo‘lib, bu erkin suvni yo‘qotishga mos keladi va Ca-montmorillonit uchun xosdir. Asosiy degidroksillanish ≈ 540 °C da ($\Delta m \approx 3,8$ %) yuz beradi, bu yuqori kristallanish darajasini bildiradi. ≈ 850 °C da ($\Delta m \approx 18,2$ %) sust effekt qatlamlarning kollapsi, spinel hosil bo‘lishi va yuqori haroratli SiO₂ shakllanishiga mos keladi.



1-rasm. Namunalarning termogrammalari: 1)KBG 2)LBG 3)BBG

LBG suvni ≈ 120 °C da ($\Delta m \approx 8,3$ %) yo‘qotadi, bu Na-turining yuqori nam saqlash xususiyati bilan bog‘liq. ≈ 535 °C da ($\Delta m \approx 4,6$ %) degidroksillanish yuqori smektit tarkibini tasdiqlaydi. ≈ 850 °C da ($\Delta m \approx 13$ %) yuzaga kelgan effekt qatlamli strukturaning parchalanishi va ≈ 20 % kvars hisobiga yuz beradi.

BBG ≈ 140 °C da ($\Delta m \approx 6,3$ %) degidratatsiyani ko‘rsatadi va ≈ 580 °C da yuqori energiyali degidroksillanish yuz beradi, bu illit-muskovit qatlamlari bilan bog‘liq. ≈ 830 °C da ($\Delta m \approx 1,5$ %) yuqori haroratli effekt tezroq boshlanadi, chunki BBG tarkibida 25–30 % kvars va dala shpatlar mavjud bo‘lib, ular toblanish

jarayonini tezlashtiradi. Umumiy massa yo‘qotilishi $\approx 12,5\%$ bo‘lib, LBGga yaqin, ammo oxirgi bosqichning hissasi kamroq.

$< 0,063$ mm fraksiyasining umumiy kation almashinuv sig‘imi (KAS) ni aniqlash uchun 1,000 g namuna 100 ml 1 M NaCl bilan $25\text{ }^\circ\text{C}$ da 3 soat davomida ikki marta gorizontol multisheykerda aralashtirildi. Keyin 3000 ayl./min da 10 daqiqa markazdan qochma kuch bilan sentrifugalandi va ekstrakt olib tashlandi. Qolgan tuzlar 1:1 etanol–suv eritmasi bilan Cl^- ionlari (AgNO_3 yordamida) yo‘qolguncha yuvildi. Perkolyatda Ca^{2+} va Mg^{2+} 0,01 M EDTA bilan pH 10 da “erioxrom qora T” ($\text{C}_{20}\text{H}_{12}\text{N}_3\text{O}_7\text{SNa}$) indikatorida titrlandi (1 mol EDTA = 1 mol kation). Na^+ va K^+ aniqlash uchun namuna 3 marta 1 M NH_4OAc (pH 7,0) bilan ishlov berilgan, perkolyat 100 ml gacha to‘ldirilib, Na (589,0 va 589,6 nm) va K (766,5 va 769,9 nm) chiziqlari bo‘yicha standartlarga (0,5–5 mg/l) mos ravishda plazma-fotometrda aniqlandi. Ca^{2+} , Mg^{2+} , Na^+ va K^+ ekvivalentlari yig‘indisi 100 g absolyut quruq namunaga qayta hisoblanib, mmol(+)/100 g da $\pm 2\%$ aniqlikda ifodalandi.

Natijalar 2-jadvalda keltirilgan. KBGda kation tarkibi muvozanatli: $\text{Ca}^{2+} - 23,2$ mg-ekv/100 g, $\text{Na}^+ - 24,2$, $\text{Mg}^{2+} - 11,5$ va $\text{K}^+ - 9,8$ bo‘lib, umumiy KAS 68,7 mg-ekv/100 g ni tashkil etdi, bu tabiiy Ca/Na-bentonitlarga xosdir. pH = 7,4 bo‘lgan eritma kuchsiz ishqoriy muhitni ko‘rsatdi va kationlarning bir tekis taqsimlanganini bildiradi.

2-jadval

Gillarning kationoalmashinuv kompleksi (mg*ekv/100 g)

Namuna	Na^+	K^+	Ca^{2+}	Mg^{2+}	Σ_{kation}	Suvli ekstraktning pH darajasi
LBG	24,2	9,8	23,2	11,5	68,7	7,4
KBG	38,8	5,6	21,2	8,9	74,5	8,1
BBG	6,5	4,2	31,2	9,9	51,8	7,5

LBG eng yuqori kation almashinuv sig‘imiga ega (KAS – 74,5 mg-ekv/100 g) bo‘lib, bu yuqori Na^+ (38,8) va o‘rtacha Ca^{2+} (21,2) miqdorlari bilan bog‘liq; Mg^{2+} va K^+ mos ravishda 8,9 va 5,6. Natriyning ustunligi yuqori bo‘kuvchanlik va suvni ushlab turish xususiyatiga ega natriyli montmorillonit turini hosil qiladi. pH = 8,1 ishqoriy muhitni bildiradi va organofillar bilan modifikatsiyaga tayyorligini ko‘rsatdi.

BBG eng past KAS (51,8 mg-ekv/100 g) ga ega bo‘lib, unda Ca^{2+} (31,2) ustunlik qiladi, Na^+ esa past (6,5); $\text{Mg}^{2+} - 9,9$, $\text{K}^+ - 4,2$. Bu cheklangan bo‘kuvchanlikka ega bo‘lgan va natriy-faollashni talab qiladigan kalsiyli bentonitlar uchun xosdir. pH = 7,5 — bu kuchsiz ishqoriy muhit va aniq buferlik xususiyatining yo‘qligini bildiradi.

Bentonit gillarini boyitish uchun gravitatsion sedimentatsiya, selektiv flokulyatsiya va suv sarfi kam bo‘lgan ($< 0,04$ l/g xomashyo) sentrifugalash usullari qo‘llanildi. Mayda fraksiya (< 63 mkm) suvning 10 baravar ortiq miqdorida dispersiya qilinib, 8–10 daqiqa cho‘ktirishga qoldirildi va kolloid qatlam dekantatsiya yo‘li bilan ajratildi. Dispersiyalash va dekantatsiya 3–4 marta takrorlandi, so‘ngra konsentrat 0,05 % Praestol 2500 flokulyant bilan qayta ishlanib, 3000 ayl./min da 5–10 daqiqa davomida sentrifugalandi. Hosil bo‘lgan cho‘kma yuvilib, dastlab $25\text{ }^\circ\text{C}$ da (24–48 soat), keyin esa $90\text{ }^\circ\text{C}$ da doimiy og‘irlikka qadar (2–3 soat) quritildi.

Ishqoriy modifikatsiya uchun suspenziyaga Na_2CO_3 ning stexiometrik miqdori kiritildi, bu $\text{Ca}^{2+} + \text{Mg}^{2+}$ almashinuvchi kationlariga ikki ekvivalent Na^+ sifatida


hisoblandi (KBG – 34,7, LBG – 30,1, BBG – 41,1 mg-ekv/100 g). Na₂CO₃ ning 100 g gilga to‘g‘ri keluvchi aniq massalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Bentonit namunalarining to‘liq natriyli modifikatsiyasi uchun Na₂CO₃ stexiometrik sarfini hisoblash

Namuna	Σ (mg-ekv/100 g)	n (mmol Na ₂ CO ₃)	m(Na ₂ CO ₃ gr 100gr bentonit uchun)
KBG	34,7	17,35	17,35·0,106 ≈ 1,84
LBG	30,1	15,05	15,05·0,106 ≈ 1,60
BBG	41,1	20,55	20,55·0,106 ≈ 2,18

Amaliyotda to‘liq reaksiya yuz berishi uchun 10% ortiqcha miqdor olindi.



KBG


LBG

BBG

2-rasm. Namunalarning mikroskopik tasvirlari (SEM ×5500)

SEM KBG namunasida zich plastinkasimon zarrachalar (1–3 mkm) agregatlarini aniqladi, ular past g‘ovaklik bilan ajralib turadi, bu esa qatlamlarning kam ochilishi va mineral aralashmalarining mavjudligini bildiradi. LBG yumshoq, shkalasimon agregatlar (0,5–2 mkm) va yumaloq konturlarga ega bo‘lib, yuqori g‘ovaklik, montmorillonitning tozaligi hamda kristall panjaraning ochiqligi bilan xarakterlanadi.

BBGda esa izometrik yumaloq shakldagi (0,8–4 mkm) hosilalar kuzatiladi, ularning halqasimon mikrostrukturasi yuqori Mg/Ca nisbati va kimyoviy modifikatsiyadan keyingi qisman agregatsiyalanish bilan bog‘liq.



BKKG

BLBG

BBBG

3-rasm. Boyitilgan namunalarning mikroskopik tasvirlari

Boyitilgan va Na-modifikatsiyalangan namunalarning mikrofotosuratlarini (3-rasm) shuni ko‘rsatadiki, boyitish va ishqoriy faollashtirish dastlabki zich agregatsiyani — KBG, LBG va BBG tabiiy shakllariga xos bo‘lgan tuzilmani — Na-montmorillonitning bo‘sh va plastinkasimon strukturasi bilan tubdan o‘zgartirdi.

KBGda karbonat va dala shpatlarning chiqarilishi katta plastinkali agregatlarning parchalanishiga, ingichka qatlamlarning alohida hosil bo‘lishiga olib keldi. LBG fraksion boyitishdan so‘ng yumaloq va tangasimon zarrachalarning zich joylashuvi buziladi; struktura ichida alohida g‘ovakli zonalar va plastinkasimon

montmorillonit kristallari paydo bo'ldi. BBGda esa tabiiy namunadagi g'ovakli oval hosilalar yanada uyushgan, tartibli ingichka qatlamlar g'ovakchalarga aylanishi kuzatildi, bu esa amorf fazalar va aralashmalarni chiqarib tashlash bilan bog'liq.

Fraksion boyitishdan so'ng barcha namunalar uchun umumiy KAS ortdi, bu aralashmalarni yo'qotish va smektit fazasini boyitish hisobiga sodir bo'ldi: BKBG 68,7 dan 75,1 mg-ekv/100 g gacha (+6,4), BLBG 74,5 dan 79,9 (+5,4) va BBBG 51,8 dan 57,6 (+5,8) gacha. Asosiy o'sish Na^+ hisobiga ta'minlandi: BKBGda +5,6, BLBGda +9,7, BBBGda +3,9 mg-ekv/100 g, bu esa Ca^{2+} va Mg^{2+} ni siqib chiqarish bilan bog'liq. pH eritmasi 0,4–0,6 birlikka oshdi, bu esa sirt ishqoriyligining kuchayganini bildiradi.

4-jadval

Boyitilgan va Na-modifikatsiyalangan gillarning kation almashinuv kompleksi (mg-ekv/100 g)

Namuna	Na^+	K^+	Ca^{2+}	Mg^{2+}	Σ_{kation}	Suvli ekstrakt-ning pH darajasi
BKBG	29,8	11,6	23,9	9,9	75,1	7,8
BLBG	48,5	6,2	18,9	6,4	79,9	8
BBBG	10,4	4,6	34,3	8,3	57,6	7,6
Na-KBG	56,6	9,9	8,6	5,5	80,6	8,1
Na-LBG	65,8	5,9	6,5	5,9	84,1	8,5
Na-BBG	44,5	4,1	5,9	3,6	58,1	7,9


Qo'shimcha Na-faollash (Na_2CO_3) KAS ni yanada oshirdi: Na-KBG 80,6 gacha (+5,5), Na-LBG 84,1 (+4,2), Na-OBGG 58,1 (+0,5). Modifikatsiyadan so'ng Na^+ miqdori mos ravishda 56,6 (+26,8), 65,8 (+17,3) va 44,5 (+37,9) mg-ekv/100 g ga yetdi, bunda $\text{Ca}^{2+} + \text{Mg}^{2+}$ o'rtacha 15–25 mg-ekv/100 g ga kamaydi. Yakuniy pH 8,1–8,5 ni tashkil etdi, bu esa to'liq natriyli faollashni va barqaror ishqoriy bufer hosil bo'lganini ko'rsatadi.

Uchinchi bobda «**Tabiiy va Fe-modifikatsiyalangan gillarning tuzilma va tekstura xususiyatlarini taqqoslash**» bo'yicha bentonit gillarning modifikatsiyasi natijalari keltirilgan.


Fe^{3+} ning adsorbsiyasi samaradorligi KAS va gillarning morfologiyasi bilan bevosita bog'liq. LBG eng yuqori KAS(15,98 mmol(+)/100 g)ga ega bo'lib, 6,58 mmol Fe^{3+} dan 5,922 mmol ni adsorbsiyalash imkonini berdi ($\approx 90\%$). KBG o'rtacha KAS bilan 5,330 mmol Fe^{3+} ni ($\approx 81\%$) adsorbsiyaladi, bu yuqori Ca^{2+} miqdori va plastinkalarning zich joylashuvi bilan bog'liq. BBG (past KAS, kalsiyli tur) 4,540 mmol ($\approx 69\%$) darajada Fe^{3+} ni qabul qildi, bu esa kompakt agregatlar va cheklangan ionlar almasinuv bilan bog'liq. Adsorbsiyalanmagan Fe^{3+} ionlari eritmada qolgan yoki amorf gidroksid fazalar shaklida cho'kkan. Fe^{3+} ionlarini — OH guruhlar bilan koordinatsiya emas, Na^+ , K^+ , Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlari bilan almashinuvini baxolash uchun qo'shimcha tahlil o'tkazildi.

Tuzilma o'zgarishlarini aniqlash uchun termik va mikroskopik tadqiqotlar o'tkazildi. Fe-modifikatsiyadan so'ng barcha namunalar termogrammasida Fe^{3+} -gidroksokomplekslarning kiritilishini aks ettiruvchi xos siljishlar kuzatildi. Fe-KBGda degidratatsiya boshlanishi $\approx 135\text{ }^\circ\text{C}$ dan $\approx 161\text{ }^\circ\text{C}$ gacha ko'tarildi (Δm 5,8→3,8 % kamaydi), degidroksillanish esa $\approx 540\text{ }^\circ\text{C}$ dan $\approx 525\text{ }^\circ\text{C}$ gacha (Δm 3,8→4,1 % oshdi). Fe-LBGda degidratatsiya $\approx 120\text{ }^\circ\text{C}$ dan $\approx 174,5\text{ }^\circ\text{C}$ gacha o'zgardi (Δm 8,3→3,1 % kamaydi), asosiy degidroksillanish esa $\approx 535\text{ }^\circ\text{C}$ dan $\approx 498\text{ }^\circ\text{C}$ gacha

pasaydi ($\Delta m \approx 4,3 \%$). Fe-BBGda birinchi bosqich harorati $\approx 140^\circ\text{C}$ dan $\approx 156^\circ\text{C}$ gacha oshdi ($\Delta m 5,3 \rightarrow 3,6 \%$ kamaydi), degidroksillanish cho‘qqisi esa $\approx 580^\circ\text{C}$ dan $\approx 535^\circ\text{C}$ gacha pasaydi ($\Delta m \approx 4,0 \%$).



4-rasm. Namunalarning termogrammalari: 1) Fe-KBG 2) Fe-LBG 3) Fe-BBG



5-rasm. Namunalarda azotning adsorbsiya- desorbsiya izotermalari: 1)KBG 2)LBG 3)BBG

Degidratatsiyaning 20°C dan 55°C ga ortishi va massa yo‘qotishning kamayishi suvning Fe^{3+} -guruhlar bilan mustahkam bog‘langanligini ko‘rsatdi, degidroksillanish haroratlarning $15\text{--}40^\circ\text{C}$ ga pasayishi esa temir bilan almashinishda alyumosilikatlar tarkibidagi mahalliy O–H bog‘larining zaiflashganidan dalolat beradi. Fe-LBGda kuzatilgan eng katta o‘zgarishlar uning dispersligi va almashinish darajasi bilan bog‘liq bo‘lsa, Fe-BBG kalsiyli xususiyatini saqlagan holda minimal termik o‘zgarishlarni namoyon etdi.

Uchala bentonit ham plastinkalar orasidagi yoriqsimon mezog‘ovaklarga xos bo‘lgan IV tip H3 turdagi gisterezis halqasi bilan tavsiflangan. $p/p_0 < 0,1$ da adsorbsiyaning chiziqli o‘shishi monoqavat shakllanishini aks ettiradi, $p/p_0 \approx 0,35-0,45$ da adsorbsiyaning keskin ko‘tarilishi esa mezog‘ovaklardagi kapillyar kondensatsiyaga to‘g‘ri keladi. Gisterezis xalqasi ayni bosimda yopiladi, bu kondensatning g‘ovak yoriqlarda “kechikib” qolishini bildiradi. Adsorbsion hajm KBGda $\sim 110 \text{ sm}^3/\text{g}$ (n.sh.), LBGda 85–90, BBGda esa 45–50 sm^3/g bo‘lib, KBGdan BBGga qarab aralashmalar ulushining oshishini ko‘rsatadi. KBGdagi halqaning yopilish nuqtasi ($p/p_0 \approx 0,35$) 3–5 nm g‘ovaklarga, LBGda ($p/p_0 \approx 0,30$) — 2–4 nm g‘ovaklarga, BBGda esa ($p/p_0 \approx 0,40$) — 4–8 nm g‘ovaklarga mos keladi. Bu qiymatlar disperslik, g‘ovaklilik va aralashmalar miqdoridagi farqlarni ifodalaydi hamda namunalar tekstura xususiyatlarini tasdiqlaydi.

5-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, LBG eng katta sirt maydoni — 34,32 m^2/g , mikrog‘ovak hajmi $V_1 = 0,0076 \text{ sm}^3/\text{g}$ va mezog‘ovak hajmi $V_2 = 0,1111 \text{ sm}^3/\text{g}$ bilan ajralib turadi. Bu ma‘lumotlar LBGda mayda g‘ovaklar ustunligini va uch namuna ichida eng rivojlangan g‘ovakli tuzilmani ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida uning yuqori adsorbsion qobiliyatini ta‘minlaydi.

5-jadval

Tabiiy bentonitlarning tuzilima xususiyatlari

Namuna	$S_{\text{nisbiy}}, \text{m}^2/\text{g}$	$V_1, \text{sm}^3/\text{g}$	$V_2, \text{sm}^3/\text{g}$	G‘ovak hajmi, Å
KBG	28,53	0,0063	0,0921	48,03
LBG	34,32	0,0076	0,1111	44,80
BBG	16,52	0,0037	0,0534	50,47

KBG o‘rtacha tuzilma parametrlarini namoyon etadi, uning sirt maydoni 28,53 m^2/g ni tashkil etadi. Bunday muvozanat LBG bilan solishtirganda kamroq intensiv bo‘lsada, mikrog‘ovaklar va mezog‘ovaklarning sezilarli rivojlanganligini bildiradi. BBG esa minimal tuzilma ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi: $S_{\text{nisbiy}} = 16,52 \text{ m}^2/\text{g}$, $V_1 = 0,0037 \text{ sm}^3/\text{g}$ va $V_2 = 0,0534 \text{ sm}^3/\text{g}$, bu esa nisbatan past g‘ovaklilik va yirik g‘ovakli arxitekturani ko‘rsatadi. Bu holat yuqori darajadagi no-mineral aralashmalar va kam qatlamli tuzilma bilan izohlanadi.

6-jadval

Bentonitlarning tuzilma xususiyatlari

Namuna	$S_{\text{nisbiy}}, \text{m}^2/\text{g}$	$V_1, \text{sm}^3/\text{g}$	$V_2, \text{sm}^3/\text{g}$	G‘ovaklar hajmi, Å
BKBG	46,54	0,0104	0,1507	44,662
BLBG	52,33	0,0117	0,1697	43,469
BBBG	35,21	0,0079	0,1139	47,927
Fe-KBG	68,59	0,0153	0,2223	44,757
Fe-LBG	99,52	0,0223	0,3228	42,393
Fe-BBG	56,74	0,0125	0,1837	44,097


Boyitish va Fe-modifikatsiyadan so‘ng barcha namunalar sirt maydoni va g‘ovak hajmlarining sezilarli o‘shishini ko‘rsatdi, bu esa no-mineral aralashmalarining chiqarilishi va Fe-gidroksokomplekslar interkalyatsiyasi bilan bog‘liq.

“Og‘ir metall ionlari, bo‘yoqlar va neft mahsulotlariga nisbatan tabiiy, boyitilgan va Fe-modifikatsiyalangan namunalarning adsorbsion xususiyatlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobda bentonitlarning adsorbsion xususiyatlarini tadqiq qilish natijalari keltirilgan.


Cu^{2+} ning adsorbsiyasi bo‘yicha kinetik tahlil o‘tkazildi, bunda boshlang‘ich kontsentratsiya qat‘iy saqlanib turildi. Olingan kinetik egri chiziqlar 6–8-rasmlarda

keltirilgan. Uchta tabiiy namunadagi Cu^{2+} ni sorbsiyalanish kinetikasi ularning KAS va g'ovaklilik darajasi bilan bog'liq. LBG eng yuqori adsorbsiyalash tezligi va darajasini ko'rsatdi: konsentratsiya 10 dan 7,1 mg/l gacha 100 daqiqada tushadi va 250 daqiqaga kelib muvozanat ($\approx 6,6$ mg/l) ga yetdi. KBG da sust ($\approx 81\%$ 300 daqiqada), BBG esa undan ham sekinroq ($\approx 68\%$ 300 daqiqada), bu ularning pastroq KAS va kam g'ovakli tuzilmasi bilan bog'liq.

Boyitishdan so'ng ham shu tuzilish saqlandi: boyitilgan LBG (LBG) eng tez muvozanatga erishdi ($\approx 5,9$ mg/l 300 daqiqada), boyitilgan KBG biroz sekinroq ($\approx 6,6$ mg/l), boyitilgan BBG esa eng sust ($\approx 7,9$ mg/l). Fe-modifikatsiya barcha namunalarda adsorbsiyani tezlashtirdi, biroq nisbiy tartib o'zgarmadi: Fe-LBG eng tez muvozanatga yetdi ($\approx 5,4$ mg/l 300 daqiqada), Fe-KBG undan biroz sekinroq ($\approx 5,75$ mg/l), Fe-BBG esa eng sekin ($\approx 7,0$ mg/l).



6-rasm. Tabiiy namunalar yuzasida Cu^{2+} ionlarining adsorbsion konsentratsiyasining kamayish kinetikasi.



7-rasm. Boyitilgan namunalar yuzasida Cu^{2+} ionlarining adsorbsion konsentratsiyasining kamayish kinetikasi.

